

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Atamuratova Nesibeli Dawirxan qizi

Nukus davlat pedagogika instituti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)" ixtisosligi 2-bosqich doktoranti.

***Annotatsiya:** Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishib chiqishida axborot kompetensiyasining juda katta ahamiyatga ega. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning axborot kompetensiyani takomillashtirishning nazariy asoslari keltirilgan.*

***Annotation:** Today, information competence is of great importance in the development of each complete adult specialist of future primary school teachers. The article presents the theoretical basis for the improvement of information competence of future teachers.*

***Kalit so'zlar:** Axborot kompetensiya, axborot-kommunikatsiya, innovatsion yondashuv, pedagogik innovatsiya, pedagogik kompetentlik.*

***Keywords:** Information competence, information communication, innovative approach, pedagogical innovation, pedagogical competence.*

Bugungi kunda talabalarni ya'ni ularni har tomonlama davlat ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan yetuk malakali mutaxassis darajasida tayyorlash mamlakatimiz oldidagi dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda fanlarni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilinish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan foydalana olish; fayllarni ochishda mediamadaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiypedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy tahlim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Tayanch darajadagi axborot kompetentlik ostida insonning kundalik hayotida va jamiyatda sodir bo'ladigan haqiqiy vaziyatlarda yuzaga keladigan ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni hal etish uchun axborot faoliyatining turli ko'rinishlarini samarali amalga oshirish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga qadriyatli munosabat, bilim va ko'nikmalarning majmuini ifodalovchi shaxs sifatlarini tushuniladi. Ayni zamonaviy ta'lim sharoitida soha mutaxassislarida axborot kompetentligining rivojlanganligi juda ahamiyatli masaladir. Shu jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ham mazlur kompetentlikning rivoj topganligiga

e'tibor qaratish yoxud ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchi har bir boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish kelajak avlod vakillariga zamonaviy bilim berishning zaruriy shartlaridan biridir deyilsa, sira mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, axborot kommunikatsion jarayonlarining tobora jadallashuvi bugun har haysi sona vakilidangina emas, balki ta'lim jarayonida faoliyat olib borayotgan har haysi fan o'qituvchisidan axborot kompetentsiyasining kerakli miqdorda rivoj topganligini talab qilmoqda. Chunki amaliy jarayonlarda bugun axborot kommunikatsion vositalaridan foydalanmasdan yetarli va yoxud ko'zlangan natijaga erishish amrimahol bo'lib qoldi. Agar o'qituvchilar maxsus axborot kompetentlikning yetarli darajasiga, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi kompetentlikka ega bo'lmasalar hamda sifatli dasturiy mahsulotlarni izlash va tanlashni amalga oshirishga, anik didaktik vazifalarni yechish uchun ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga tayyor bo'lmasalar, o'qitishning yangi axborot texnologiyalari boshlang'ich ta'limda foydasiz bo'lishi tabiiy. O'qituvchining axborot kompetentligi — kasbiy dunyoqarash va mustaqil ta'limni kengaytirish maqsadida axborot faoliyatining turli ko'rinishlarini bajarish bilan bog'lik ko'nikmalarni kiritishi hamda mavjud ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'zlashtirish, yangi bilimni hosil qilish va uni kasbiy hamjamiyatga yetkazish bilan bog'lik hisoblanadi.

O'qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy imkoniyatlarini ahamiyatli oshiradi, uning pedagogik kompetentligining chegaralarini kengaytiradi va demak, uning kasbiy faoliyatining mahsuldorligini oshirishga, ya'ni ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat kiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish axborotni qayta ishlash uchun kompyuter texnologiyalarini nazariy va amaliy o'rganish orqali amalga oshiriladi;

- turli maqsadlardagi (umumiy, maxsus, o'quv) dasturiy ta'minotni o'rganish va uni kasbiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

-axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda fanni o'qitishning uslubiy tizimini o'zgartirish va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali pedagogik tajriba almashish madaniyatini singdirish va hokazo.

Elektron o'qitish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-o'qitilayotgan fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish qobiliyati;

-interfaol, mul'timedia elektron ta'lim resurslarini yaratish va tayyorlaridan foydalanish uchun dasturiy vositalardan foydalana olish qobiliyati;

-o'quvchilari uchun tarmoq ta'lim shakllarini (telekommunikatsion loyihalar, viktorinalar, telekonferensiyalar, olimpiada va boshqalar) ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyati;

- kompyuter aloqasi vositalaridan foydalana olish qobiliyati.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz mumkinki, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy samarali kasbiy faoliyatning individual uslubini shakllantirish va rivojlantirishga, kasbiy mahoratni, kasbiy faoliyat va kompetensiya sifatlarini va professional introspeksiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. D Khalilova. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.

2. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
3. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117.
4. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>).
5. X.D.Furqatovna. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
6. Сатторова, Х. (2012). РЕФОРМА И ТРУДНОСТИ ОБУЧЕНИЯ. Вопросы психологии и педагогики, (2), 61-64.
7. Сатторова, Х. (2012). РЕФОРМА И ТРУДНОСТИ В ОБУЧЕНИИ (на тадж.). Вестник Педагогического университета, (3-2), 156-158.
8. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
9. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
10. <https://cyberleninka.ru>
11. <http://scientists.uz>
12. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. World Scientific News, (143), 115-126.
13. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.
14. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 96-98.
15. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). Inflation: Theoretical Aspects And Analysis Of Price Changes In UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 204-207.

16. Malikova, D., & Abduganieva, F. (2023). The Role of Consulting in the Modern Economy. *Global Scientific Review*, 12, 1-4.
17. Malikova, D., & Rakhmonov, N. (2023). MONETARY AGGREGATES AND THEIR IMPORTANCE IN THE ECONOMY.
18. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). Analysis of the Current State of Deposit Operations of Commercial Banks of Uzbekistan. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 28-31.
19. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). THE IMPORTANCE OF DOMESTIC BANKS'PRECIOUS METALS ACCOUNTING OPERATIONS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
20. Маликова, Д. (2021). UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA KITOBXONLIK STRATEGIYASINI QO'LLASH: Malikova Dilrabo Mahmudovna, O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7), 299- 305
21. G'afforova. *Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar*. – T.: 2016
22. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi"/Metodik qo'llanma–T:Nizomiy nomli DTPU,2013.-115b
23. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya".- T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.
24. Eshmirzaev, G. (2021). Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish. *Jizzax-2021*
25. Eshmirzaev, G. (2021). Boshlang'ich sinflarni o'qitishda elektron darsliklarni o'rni. *Innovations in primary education*, 2(Arxiv№ 4)
26. Eshmirzaev, G. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda axborot-texnologik kompetentligining o'rni va roli.(NamDU axborotnomasi